



«Orient Finans» XATB ning  
14 avgustdagi 123 sonli  
Boshqaruv bayonnomasiga  
Ilova №1

## «OFB va UZCARD dan IPHONE 16 PRO va pul mukofotlari yutib oling» promo-aksiya qoidalar

### 1. Umumiy qoidalar

- 1.1. Ushbu qoidalar «OFB va UZCARD dan IPHONE 16 PRO va pul mukofotlari yutib oling» promo-aksiyasini o'tkazish tartibi, shartlari, o'tkazilish joyi va muddatini belgilaydi.
- 1.2. **Aksiya tashkilotchilari:** «Orient Finans» XATB Uzcard kompaniyasi ko'magida.
- 1.3. **Aksiya o'tkaziladigan hudud:** «Orient Finans» XATB tizimi doirasida, O'zbekiston Respublikasi hududida.
- 1.4. **Aksiya o'tkazish muddati:** 2025 yil 15 avgustdan 2025 yil 15 dekabrga qadar.

### 2. Aksiya Ishtrokchilari

- 2.1. Aksiyada 18 yoshga to'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari ishtrok etishi mumkin. «Orient Finans» XATB xodimlari ularning yaqin qarindoshlari, hamda ushbu Aksiya reklama qilishda ishtrok etgan shaxslar qatnashish huquqiga ega emas.
- 2.2. Aksiyada ishtrok etish – ishtrokchining ushbu qoidalarga to'liq roziligini anglatadi.
- 2.3. Qoidalarga riosa qilinmagan taqdirda, ishtrokchi Aksiyada ishtrok etish va sovrin olish huquqidan mahrum bo'ladi. Sovrinni olish uchun ishtrokchilar Aksiya davomida ushbu Qoidalarda belgilangan barcha talablarni bajarishlari shart.

### 3. Aksiyada ishtrok etish shartlari

- 3.1. Aksiyada ishtrok etish uchun mijozlar «Orient Finans» XATB da Aksiya davomida yoki avvalroq emissiya qilingan UZCARD (STANDART, SHERDOR va VIRTUAL) egalari bo'lishi lozim. UZCARD egalari 150 000 so'm yoki undan ortiq tranzaksiya amalga oshirishi, xamda OFB ilovasini yuklab olib ro'yxatdan o'tib Aksiya muddatida istalgan turdag'i tranzaksiya amalga oshirgan taqdirda, avtomatik tarzda Aksiya ishtrokchisiga aylanadi. **Muhim**, mijozlar tranzaksiyalar soniga qaramasdan bir bosqichda bir martta ishtrok etadi. Keyingi bosqichda ishtrok etish uchun belgilangan shartlarni bosqich muddatida bajargan holda ishtrok etishiga xaqli.

- 3.2. Tranzaksiya – bu kartadan tovar yoki xizmatlar uchun to'lov amalga oshirganda (shu jumladan internet orqali amalga oshirilgan to'lovlar) oy davomida qayd etilgan xarajat operatsiyasidir. (P2P operatsiyalari bundan mustasno) Aksiyada ishtrok etadigan tranzaksiya summasi Bank komissiyasi hisobga olinmagan holda hisoblanadi.

### 4. Sovrin Jamg'armasi

- 4.1. Bosh sovrin – IPHONE 16 PRO 4 dona, Aksiya bo'yicha g'oliblar har oyda bir marotaba aniqlanadi:  
15.08.2025 yildan 15.09.2025 yilgacha - 1 dona IPHONE 16 PRO  
16.09.2025 yildan 15.10.2025 yilgacha - 1 dona IPHONE 16 PRO  
16.10.2025 yildan 15.11.2025 yilgacha - 1 dona IPHONE 16 PRO

16.11.2025 yildan 15.12.2025 yilgacha - 1 dona IPHONE 16 PRO

4.2. Bir oyda ikki martta 150 nafa g'olib uchun 150 000 so'm miqdorida pul mukofoti o'yinlari o'tkaziladi. Jami 8 ta bosqich bo'lib, ular 2025 yil 15 avgustdan 2025 yil 15 dekabrgacha bo'lgan davrda amalga oshiriladi. Jami g'oliblar soni – 1 200 nafar mijoz.

4.3. G'oliblar sovrinni sovrin miqdoriga teng boshqa maxsulotga almashtirishni, shuningdek, sovrinni qimmatroq yoki arzonroq boshqa sovrining almashtirishni, farqini qo'shimcha to'lash yoki qaytarish orqali talab qilish huquqiga ega emaslar.

## **5. Promo-aksiyani o'tkazish tartibi va sovrinlarni o'ynash jarayoni**

5.1. Sovrinlar har oy bank komissiya s'zolari ishtrokida o'ynaladi.

5.2. 4.1.-bandda ko'rsatilgan bosh sovrin g'oliblari xar bir bosqich muddatidan keyin 10 kun ichida aniqlanadi.

5.3. 4.1.-bandda ko'rsatilgan oraliq (pul) mukofotlari o'yinida qatnashuvchilar – quyidagi bosqichlarda tranzaksiya amalga oshirgan Uzcard egalaridir:

**1 bosqich:** 15.08.2025 yildan - 31.08.2025 yilgacha (shu kun ham kiritilgan)

150 nafar g'oliblar 05.09.2025 yilga qadar aniqlanadi.

**2 bosqich:** 01.09.2025 yildan - 15.09.2025 yilgacha (shu kun ham kiritilgan)

150 nafar g'oliblar 20.09.2025 yilga qadar aniqlanadi.

**3 bosqich:** 16.09.2025 yildan - 30.09.2025 yilgacha (shu kun ham kiritilgan)

150 nafar g'oliblar 05.10.2025 yilga qadar aniqlanadi.

**4 bosqich:** 01.10.2025 yildan - 15.10.2025 yilgacha (shu kun ham kiritilgan)

150 nafar g'oliblar 20.10.2025 yilga qadar aniqlanadi.

**5 bosqich:** 16.10.2025 yildan - 31.10.2025 yilgacha (shu kun ham kiritilgan)

150 nafar g'oliblar 05.11.2025 yilga qadar aniqlanadi.

**6 bosqich:** 01.11.2025 yildan - 15.11.2025 yilgacha (shu kun ham kiritilgan)

150 nafar g'oliblar 05.11.2025 yilga qadar aniqlanadi.

**7 bosqich:** 16.11.2025 yildan - 30.11.2025 yilgacha (shu kun ham kiritilgan)

150 nafar g'oliblar 05.12.2025 yilga qadar aniqlanadi.

**8 bosqich:** 01.12.2025 yildan - 15.12.2025 yilgacha (shu kun ham kiritilgan)

150 nafar g'oliblar 20.12.2025 yilga qadar aniqlanadi.

5.4. Asosiy va oraiq sovrinlar g'oliblari maxsus Random dasturi yoki shunga o'xshash tasodifiy raqamlar yaratish dasturlari orqali aniqlanadi.

5.5. Bank Aksiya ishtrokchilari bilan yozma muzokaralar olib bormaslik yoki boshqa aloqalar o'rnatmaslik huquqini o'zida saqlab qoladi, Aksiya o'tkazishda bahsli holarlar bundan mustasno.

5.6. Aksiyada ishtrok etish – ishtrokchilar o'z ism, sharflari, fotosuratlari va boshqa ma'lumotlarini tashkilotchi tomonidan reklama maqsadlarida hech qanday qo'shimcha to'lovsiz qo'llashga rozilik berishini anglatadi.

5.7. Bank o'z xohishiga ko'ra ushbu Qoidalarga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish huquqini saqlab qoladi va bu o'zgarishlar qo'llanilishidan 3 (uch) ish kuni oldin [www.ofb.uz](http://www.ofb.uz) saytida e'lon qiladi. Bank sovg'alar ro'yxati va ularning miqdorini o'zgartirish yoki kengaytirish huquqiga ega. Bank ishtrokchiga Aksiyada ishtrok etish bilan bog'liq yuzaga kelgan zarar, xarajat yoki boshqa yo'qotishlarni qoplamaydi.

5.8. Bank sovg'adan foydalanish davomida g'olibning sog'lig'i (hayoti) ga yoki uchinchi shaxslarning mulki, salomatligi yoki hayotiga etkazilgan zarar uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.

5.9. Aksiyani o'tkazish jarayonida paydo bo'lishi mumkin bo'lgan barcha nizo va kelishmovchiliklar Bank va ishtrokchi o'tasida ixtiyoriy muzokara olib boorish yo'li bilan hal etiladi. Agar kelishuvga erishilmasa, nizo sud orqali ko'rib chiqiladi.

5.10. Har bir asosiy sovrin g'oliblari uchun 2 nafar zaxira nomzod Random yoki shunga o'xshash tasodifiy sonlar generatori orqali aniqlanadi.

5.11. Asosiy sovrin g'olib sovrinni olmasa yoki rad etsa – sovrin birinchi zaxira nomzodga taqdim qilinadi u ham sovrinni olmasa yoki rad etsa, sovrin ikkinchi zaxira nomzodga o'tadi.

5.12. Ikki zaxira nomzod xam sovrinni olmasa yoki rad etsa – Komissiya qaroriga ko'ra boshqa g'oliblar aniqlanadi yoki sovrin keyingi aksiyaga qoldiriladi.

5.13. Aksiya g'olblari [www.ofb.uz](http://www.ofb.uz), OAV va ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilinadi.

5.14. G'oliblarga SMS yuboriladi yoki telefon orqali bog'laniladi.

5.15. Tashkilotchi ishtrokchining Aksiya shartlariga riosa qilmasligi oqibatlari uchun javobgar emas.

## **6. Sovrinlarni qabul qilish tartibi va muddati**

6.1. Bosh sovrinlar Toshkent shahri, Osiyo ko'chasi, 5-uyda joylashgan «Orient Finans» XATB da yoki boshqa filiallarda tegishli hujjatga imzo chekgan holda topshiriladi.

6.2. Bosh sovrin – mijozning shaxsini tasdiqlovchi hujjati ma'lumotlari ishtrok etishdagi ma'lumotlarga to'liq mos kelganda topshiriladi.

6.3. Aksiya g'olib sovrinni olish uchun shaxsini tasdiqlovchi hujjat asl nusxasxasini taqdim etadi.

6.4. G'olib sovrinni ololmasa, bu haqida xabar beradi va boshqa sana kelishiladi.

6.5. Sovrin topshirilishi – topshirish-qabul qilish dalolatnomasiga asosan rasmiylashtiriladi.

6.6. Oraliq bosqichdagi pul mukofotlari – OFB mobil ilovasidagi elektron hamyonga o'tkaziladi.

6.7. Barcha 4.1., 4.2., band bo'yicha soliqlar, to'lovlar va boshqa xarajatlar Bank hisobidan to'lanadi.

6.8. Bankning sovrinni topshirish - qabul qilish dalolatnomasiga imzolangandan so'ng majburiyati bajarilgan xisoblanadi.

6.9. Sovringa egalik huquqi topshirilgan paytdan boshlab g'olibga o'tadi.

6.10. Sovrin topshirilishi ommaviy tadbir sifatida o'tkazilishi mumkin.

## **7. Aksiya ishtrokchilariga aksiya shartlari, aksiyani to'xtatish yoki muddatidan oldin yakunlash to'g'risida xabar berish tartibi**

7.1. Aksiya haqida xabarnomalar qisqa metrajli roliklar monitorlar, bankning ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari orqali beriladi.

7.2. Batafsil ma'lumot bankning rasmiy [www.ofb.uz](http://www.ofb.uz) sayti orqali elon qilinadi.

7.3. Promo-aksiya haqida qo'shimcha ma'lumotni quyidagi raqam orqali olish mumkin: (+998 71) 200-88-99.

7.4. Agar Aksiya muddatidan oldin to'xtatilsa, muddatlari uzaytirilsa yoki qoidalarga o'zgartirishlar kiritilsa, [www.ofb.uz](http://www.ofb.uz) sayti orqali elon qilinadi.